



МУҒАЛЛИМ ҲӘМ УЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ

Илимий-методикалық журнал



№ 3/1 2024



гуманитарные науки
естественные науки
технические науки



МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЙ



Илимий-методикалық журнал

2024

3/1-сан

*Озбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жасындағы
Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының
25.10.2007 жыл (№138) қарапы менен дизимге алынды*

*Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен
2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды.
№01-044-санлы гүйалық берилген.*

Нөкис

3/1-сан 2024

март

Шөлкемлестириүшилдер:

**Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендіриү Министрлигі,
ФЗПИИ Қарақалпақстан филиалы**

Редактор:

А. Тилегенов

Редколлегия ағзалары:

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрула АЛЯМИНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхұжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Тұлқин АЛЛАЁРОВ
Мариғжон АХМЕДОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фарҳад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Аскар ДЖУМАШЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбай ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОИЛОВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз,
Қазақстан)
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шымкент,
Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Аскарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА

Хұшбоқ НОРБҮТАЕВ
Улфат МАҲКАМОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Камаладин МАТЯКУБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Қаххор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Воҳид КАРАЕВ
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЙОСУПОВ



МАЗМУНЫ

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

Тилемуратова Г.Т. Көракалпок адабиётин ўқитишида халк оғзаки ижодидадан фойдаланиши усуллари	9
Aytbayev D.T. Ergash gapli qo'shma gaplarda diktum va modusning ifodalanishi	13
Mamarizayeva F.Z. Tarjimada badiiy asar uslubini saqlashning turli strategiyalari va bu jarayonning o'ziga xosligi (S.Ahmadning "Jimjitlik" asari misolida)	17
Qurbanova D.A. Neyrolingvistikaning fan sifatidagi ahamiyati	22
Odiljonova K.A. Leksikologiya hamda uni o'qitishga doir o'quv materiallari mazmuni hamda o'quvchilarda leksik kompetentlikni shakllantirish hamda so'zdan foydalana olishning mayjud ahvoli	27
Sultonkulov O.J. Zamonaviy tilshunoslikda "Vaqt" konseptini pragmatik jihatdan o'rganish masalalari	34
Еркибаева Г.Г., Тұрыналиева Г.Б., Абдикаримов А. Фразеологические словари и фразеологическая компетенция	39
Otabayev M. N. The role of games in teaching English	45
Majidova G. Strategies for developing students' critical thinking skills in teaching foreign languages	49

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Turumbetova A. Oqiw sabaqlarinan tisqari dógerk jumislarin ótkeriw metodikasi	54
Temirbekova A.O., Saribaeva B. Jähán tálím sistemasında - tálím	63
Тулишов Ф. Талабаларда креативликни баҳолашнинг ўзига хос хусусиятлари	67
Ismadiyarova U.A. Ma'naviy-ahloqiy tarbiya mexanizmlarini etnopsixologik qadriyatlar asosida takomillashtirish	73
Юсупов С. С. Таълим-тарбия тизимини бошқарувида раҳбарлик ва ташкилотчилик фаолиятининг педагогик асослари	80
Абдурахимов Қ.А. Тафаккур жараёнига айтиб туришларнинг таъсири ва роли	89
Рўзиматов Э.Й., Рўзиматов Э.Э. Замонавий ўқитувчи-келажак бунёдкори	99
Turdiqulova N.T. Kasbiy kompetentlikni shakllantirish jarayonida xorijiy tajribalardan foydalanishning samaradorligi	103
Хамрокулова Ш.Э. Даволаш педагогикасининг фан сифатида ривожланиши	113
Содиков У., Жўраев А. Масалаларни ечишида ўқувчиларда математик моделлаштириш кўйникларини шакллантириш	120
Абдуллаева Г.А. Маънавий тарбияни мидорий хусусиятлари	125
Хайдарова Х.Р. Ёшлардаги ахборот-виртуал саводхонликни ривожлантириша рақамли медианинг роли	130
Хамрокулова Ш.Э. Экологик тарбия механизmlarini takomillashтиришнинг методологик асослари	135
Худайназаров Т.А. Талабалар ўкув фаолияти самарадорлигини таъминлашда рағbat ва жазо феноменларининг роли	141
Ахрарова З.Б. Маънавий - ахлоқий тарбия жараёнларида Маҳмудхўжа Бехбудийнинг ижтимоий – педагогик меросидан фойдаланиш	148
Jumabaev A.D. Axloqiy ta'limga qo'llaniladigan usullar va texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari	154
Xushbaqov D. Q., Sodiqov U. J. Talabalarda mental dunyoqarashni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	163
Sultansaidova M.A. Xorijiy tajribalar asosida bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish	170
Абдурахимова Да.А. Интегратив ёндашув асосида бўлажак офицерларнинг ахлоқий-рухий, жанговар компетентлигини ривожлантириша маънавий маданиятнинг роли	175
Mirzayev Sh.T. Harbiy ta'limga fakultetlari talabalarining innovatsion fikrflashlarini rivojlantirish omillari	182



Joldasbayev P.M. Sport meditsinasiniň dene tárbiysi menen baylanislılığı hám rawajlaniw dawirleri	609
Kadirimbetov R.N. Qaraqalpaqsan Respublikasında qılıshpazlıq sportıñ rawajlandırıw arqalı salamat áwladtí tárbiyalawdí ilimiý-pedagogikalıq tiykarları	617
Xudayorov D.D. Mahalliy va milliy an'anamız – kurash	622
Jarilkapov U.B. Malakali erkin kurashchilarmı og'ir atletika mashqları orqali kuch sifatini takomillashtirish metodikası	626
Норқобилов М.Н., Үринбоев Э.А. Таянч харакат аппараты шикастланган талабаларнинг ҳаракат фаолигини такомillashtiriш uslubiyati	633
Jarilkapov U.B. Malakali erkin kurashchilarning kuch tayyorgarligida anketa savollari orqali og'ir atletika mashqlarining o'rni va ta'sirining tahlili	643
Yusupova R.J. Jismoniy mashqlarga tana a'zolarini ko'niktirish	648
Йўлдашов М.Р. Жисмоний тарбия va спорт воситаларидан фойдаланган ҳолда мактаб ўкувчилирни соғломлаштириш асослари	651
Шаджалилов Ш.И. Футбол ҳакамларини ўйин фаолиятини бошқара олмаслик оқибатларини бартараф этиш	656
Qayumov Sh.A. Innovatsion tizimlar asosida talabalarda sport va salomatlik immunitetini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	661
Niyazov A.T., Rajabova M.M. Paralimpiya sport musobaqaları natijaları asosida sport ta'limi ni rivojlantirish	665
Baxromov O. Sportchilar shaxsiy xususiyatlarini shakllanishida motivatsiyaning ta'siri	670
Baxromov O. Futbolchilarining maydondagı texnik va taktik harakatlari	676
Niyazov A.T., Rajabova M.M. Sportning o'yin turlarida taktik harakatlarni bajarishda tezlikni rivojlantirish uslubiyati	680
Қалжанов П.У., Мирзабетов П.ИІ. Ёш спортчиларни жисмоний сифатларни тарбиялаш ва ҳаракат коникларини takomillashtiriш асослари	685
Soatov E.M. Olyi ta'lim muassasalarida kurash bo'yicha o'qituvchilar va murabbiylar faoliyatiga qo'yiladigan talablar	689
Sultonov Sh. U. Jismoniy madaniyat sohasida talabalarning ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish mezonlari	695
Tleuov B.A. Yuqori malakali gandbolchilarning chaqqonlik sifatlarini rivojlanish darajasini o'rganish	699
Shamsiyev R.M. Zamoniavi yondashuvlar asosida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkiliy-metodik asoslarini takomillashtirish	707
Ilyosboyev S. B. Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining uzlusiz pedagogik amaliyotini tashkil etish yo'llari	710
Тлеуов Б. А. Гандболчи-талабаларда маҳсус жисмоний тайёргарлик кўрсаткичларининг таъкириба давомида ўзгариш динамикаси	714
Joldasbayev P.M., Qutlimurodova O.P. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshdagı bolalarda jismoniy sifatlarini shakllantirishda harakatlı o'yinlardan foydalanish	720
Abdullayev A. A. Tabaqalashtirish asosida jismoniy tarbiya darslarini tashkil etish mexanizmlari	724
Maxmudov B.A. Jismoniy madaniyat mutaxassislarini tayyorlash jarayonida referat va mustaqil ta'lim ishlarining mazmuni va mohiyati	729
Eshmatov G'E. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini tashkil etishda tibbiy pedagogik nazoratning o'rni va ahamiyati	734
Jabborov A.T. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining inson xususiyatlarini shakllanishiha ta'siri	737
Raxmonova G.U. Jismoniy ta'lim jarayonini milliy an'analar vositasida tashkil etishning metodik ta'lomi	743



OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KURASH BO'YICHA O'QITUVCHILAR VA MURABBIYLAR FAOLIYATIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

*Soatov E.M.
CHDPU o'qituvchisi*

Tayanch so'zlar: kurash, o'qituvchi, murabbiy, boshqaruvchilik, sport, jismoniy tarbiya, harakat, mashq, o'yin, namuna.

Ключевые слова: борьба, педагог, тренер, управление, спорт, физическое воспитание, движение, упражнение, игра, пример.

Key words: wrestling, teacher, coach, management, sports, physical education, movement, exercise, game, example.

Bugungi kunda Respublikamizda jismoniy tarbiya va sportni hamda milliy qadriyatimiz hisoblangan Kurashni rivojlantirish uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan aholi jismoniy madaniyatini oshirish uchun kuchli turtki bo'lib xizmat qilmoqda.

Kurash fanini o'qitishdagi faoliyatlar g'oyat murakkab va ko'p qirrali jarayon hisoblanadi. Turli nomlardagi darsliklarni o'rgatish bilan bir qatorda talaba va yoshlarning xulq-atvorlari, bilim darajalari va fanga bo'lgan munosabatlarini kuzatish, o'rgatish, tarbiya berish bilan qo'shib olib boriladi. Buning uchun esa o'qituvchida chuqur bilim, pedagogik mahorat va shaxsiy namuna, tashabbuskorlik, yangilik sari ijodiy izlanish faoliyatlar ustun bo'lishi kerak.

Kurash fani o'qituvchilarini hamda murabbiylarida ham mazkur faoliyatlar mavjuddir. Bunga qo'shimcha yana amaliy faoliyatlar ham talab etiladi, ya'ni har bir darsda va mashg'ulotlarda mashqlar, harakatlarni o'qituvchi ko'rsatib berish, na'muna bo'lish talab etiladi. Bu faoliyat jismoniy tarbiya o'qituvchisining ko'p qirrali va mahoratli mehnatining mazmunidir. Shu sababdan aytish mumkinki, jismoniy tarbiya o'qituvchisining ijodiy va amaliy faoliyati boshqa fan o'qituvchilarining faoliyatidan ancha ustun turadi. Bu



jarayonlarning ba’zi bir tomonlarini qisqacha ravishda quyidaicha ifoda etish mumkin:

Talaba yoshlarni nazariy bilimlar bilan chuqurroq qurollantirishni davr taqozo etmoqda. Bular “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun va davlat ta’lim standartlarida qayd etilgan. Barcha sohalar kabi jismoniy tarbiya va sport ta’limi jarayonida Kurash bo‘yicha umumiy bilimlar bilan bir qatorda hayotiy zarur bo‘lgan nazariy bilimlarni berish dolzARB muammolardan biridir.

Nazariy bilimlar deganda asosan quyidagilarni tushunmoq kerak, ya’ni:

- dasturidagi barcha fanlarning mazmuni.
- jismoniy tarbiya nazariyasining asoslari.
- kurash mashg‘ulotlarining tashkiliy va amaliy asoslari.

1. Nazariy bilimlarni egallash va uni talaba yoshlarga o‘rgatish:

- kurash turlari va uni o‘qitish metodikasi fanining mazmun va qonuniyatlarini chuqur bilish, ularga amal qilish, talabalarga nazariy bilim va tushunchalar berishda davr talablari asosida yangi usullar, texnologiyalar hamda pedagogik mahoratlar, ilg‘or tajribalar, ilmiy tadqiqot natijalaridan samarali foydalanish;
- kurash tarixi bo‘yicha jahon xalqlari va O‘zbekistonning qadimiy va yaqin o‘tmishidagi tarixini yaxshi bilish. Ularni talaba-yoshlarga o‘rgatishda hozirgi davrdagi yutuqlarni daliliy ashyolar asosida so‘zlab berish, videotasvir va kompyuterlarda namoyish etish;
- inson tanasi va a’zolarining vazifalari haqida chuqur bilimga ega bo‘lish.

Kurash bo‘yicha talaba-yoshlarga tushunchalar berishda mashqlarning zaruriyati, o‘rganish darajalari va yo‘llari haqida namunalar (bo‘g‘inlar, mushaklar, harakatlar va h.k) berish.

- Biokimyo (bioximiya) oziq-ovqatlarni hazm qilish, ularning turlari va miqdorlari haqida (ichki a’zolar: oshqozon-ichak, jigar, o‘t, qovuq va h.k) to‘la ma’lumotlar berish;
- Biomexanik tushunchalar: harakatlarni bajarishdagi sarf bo‘ladigan kuch-quvvatlar (energiya), uni mushaklar tuzilishi va harakatiga mos ravishda sarflash (berish), kuchlarni qayta tiklash, qon harakati orqali tanani qizdirish vasovutish yo‘llari. Umuman bu sohada o‘zlashtirish, chuqur bilimga ega bo‘lish har bir kishining burchi bo‘lishi lozim.
- kurash bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni oshirishda (dars,mashg‘ul, musobaqa) texnika-taktika qoidalarga rioya qilish asosida ahloq-odob, o‘zaro hurmat, o‘zini saqlay bilish kabi ma’naviy-ma’rifiy madaniyatni unutmaslik.



- gigienik talablar (yuvinish, tozalik, maxsus sport kiyimlari va h.k) va qoidalarga to‘la rioya qilish.

2. Amaliy faoliyatlar:

- kurash turlarini yaxshi bilish, namuna sifatida talabalarga usul va mashqlarni ko‘rsatib berish;
- umumrivojlantiruvchi va maxsus mashqlarini talabalar bilan birqalikda bajarish;
- kurash darslarida sakrashlar, uloqtirish, yiqitish mashqlarini ko‘rsatish va imkoniyat darajasida talabalar bilan birqalikda bajarish (kim yaxshi, tez bajarish – baxs, musobaqa);
- maxsus mashqlar bo‘yicha darslar va to‘garak mashg‘ulotlarida talabalarga texnika-taktika qoidalarni amaliy ko‘rsatish, ular bilan birqalikda o‘ynash (baxs-musobaqa);
- kurash darslarini o‘tkazishda o‘qituvchi yoki murabbiy shaxsan namuna ko‘rsatishi lozim;
- jismoniy tarbiya dasturi asosida boshqa turlar va noan’anaviy mashq -o‘yinlarni (xalq milliy o‘yinlari, sport o‘yinlari v.b larni) tashkil qilishda iqtidorli o‘g‘il-qizlardan namunaviy ko‘rsatishda foydalanish;
- kurash to‘garaklari va musobaqalar jarayonida zarur bo‘lgan mashqlarni takror ko‘rsatish va talabalarning o‘zlashtirishida xato kamchiliklarni tuzatishda video tasvir, rasm (surat), chizma (sxema) va boshqa vositalardan maqsadli foydalanish;
- dam olish kuni yoki ta’til paytlarida bir kunlik va tunab kelish piyoda yurish sayohatlarini tashkil qilishda (maxsus testlar) barcha tartib-qoidalarga rioya qilish (jihozlar, yo‘l qoidalari, odob-intizom va h.k);
- suvda suzish (maxsus havza, ariq-kanal, ko‘l-daryo) mashg‘ulotlarini (dars, maxsus testlar) tashkil qilish va o‘tkazishda hushyorlikni ta’minalash, qo‘sishma nazorat va ko‘maklashish imkoniyatlardan foydalanish;
- qishloq sharoitlarida I-bosqich talabalar bilan otda yurish, otni choptirish, ariq-to‘siqlardan sakrab o‘tish, ot ustida tortishish (ag‘darish), poyga kabi o‘yinlarni tashkil qilish lozim. “Chillik”, “Poda to‘p”, “Oq suyak” kabi Kurashga xos milliy harakatli o‘yinlarni tashkil qilish va o‘tkazishda talabalar chavondoz-polvonlar, sport muxlislari va keksa kishilardan foydalanish lozim bo‘ladi.

Demak, kurash darslari o‘qituvchisining nazariy bilim va amaliy malakalarga puxta ega bo‘lishi pedagogik mahoratni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jismoniy tarbiya yoki Kurash darslarida pedagogik kuzatish g‘oyat murakkab faoliyat hisoblanadi. Masalan fanlarni o‘qitishda o‘zlashtirishni sinash, bilish,



xulosa qilish uchun dars davomida o‘qituvchi 4-5 ta talabadan so‘rab biladi. Qolganlari esa bir dars davomida noma’lum bo‘lib qolaveradi. Jismoniy tarbiya darslarida (gimnastika asboblari, yengil atletikadagi sakrashlar, uloqtirish faoliyatlar bundan mustasno) deyarlik barcha talabalar bir xil mashqni bir vaqtda baravariga bajarishadi. Ularni birma-bir kuzatish lozim bo‘ladi. Xato yoki noto‘g‘ri bajarganlar tezda ko‘zga tashlanadi, ularni tanlab o‘rgatish, izoh berish va ko‘proq takrorlashni talab etiladi. Bunday holatlar umum rivojlantiruvchi mashqlar, kross yugurishlar, sport o‘yinlari turlarida sodir bo‘ladi. Bu yo‘lda o‘qituvchi bevosita ko‘rsatib berishi va iqtidorli talabalar ijrosida namuna qilib ko‘rsatishi ham mumkin bo‘ladi. Psixologik kuzatishlar jismoniy tarbiya yoki Kurash darslarida qiziqarli ravishda amalga oshiriladi, bunda o‘qituvchining bilim saviyasi va tajribalari asosiy o‘rinda bo‘lishi lozim, ya’ni:

- yugurish, sakrash turnikda tortilish, to‘p o‘yinlari va boshqa harakatlarda ba’zi bir talabalarning (jismonan zaifroq, hoxishi yo‘q, astoydil qiziqish va h.k) yuzi qizarishi yoki aksincha oqarishi sodir bo‘ladi. Bunday holatlarni o‘qituvchi va faol talabalar o‘z vaqtida ko‘rishi, sezishi, bilishi kerak. Me’yoriy yuklanish oshgan bo‘lsa ularni kamaytirish, qynalgan talabalarni ajratib maxsus mashq-o‘yinlarga safarbar etilishi lozim;
- tana a’zolarining og‘rishi (bo‘yin, qorin, oyoq va h.k) haqida shikoyat (xabar) qilish hollari tez-tez uchraydi. Ular asosan bir-biriga urilish, yiqilish, to‘qnashish kabi holatlarda yuz beradi. Ushbu xodisalar jarayonida ustoz -murabbiy so‘zsiz o‘rnak bulishi zarur.

Turli masofalarga yugurishda (so‘ngida) nafas olishini og‘irlashishi, harakatsizlik va qorin og‘rig‘i paydo bo‘lishi mumkin. Bu holatlar kasalmand yoki jismoniy tayyorgarligi kam bo‘lgan talabalarda uchraydi. Shu sababdan bunday talabalarni doimo kuzatish, zarur bo‘lganda mashqlar va uning bajarilish me’yorlarini qisqartirish lozim bo‘ladi.

- kurashish va qisqa masofalarga yugurish jarayonlarida ba’zi bir iqtidorli talabalar g‘arazgo‘ylik, ko‘rolmaslik, g‘irromlik kabi xislatlarini ishlatadi. Ayniqsa raqib bo‘lgan talabalar yutqazish natijasida bir-biri bilan to‘qnashishi (jahl bilan qarash, haqorat qilish, turtish, tepish, bosh bilan urish, mushtlash va h.k) tabiiydir. Bunday holatlarning sodir bo‘lmasligi uchun o‘qituvchi-murabbiy doimo ularni bilishi, kuzatishi va qoida-talablar asosida ogohlantirib turishi lozimdir.

Aksariyat ko‘pchilik murabbiylar, ayniqsa yosh mutaxassislar kurashchi bolalar bilan mashg‘ulot o‘tkazishda sportning texnik va taktik amallariga tayanishadi. Shu sababdan kurashchilar hatto ba’zi taniqli kurashchilar ham inson tanasidagi yuz beradigan anatomiq, fiziologik, biologik, biomexanik,



biokimyoviy, psixologik va pedagogik faoliyatlarni yaxshi bilishmaydi. Natijada esa quyidagi holatlar yuzaga keladi:

- jarohatlanish.
- qiziqishning so‘nishi yoki yo‘qolishi.
- yaxshi natijalarga erisha olmaslik.
- shug‘ullanish, musobaqlarda qatnashish faoliyati tugagach murabbiylik qilishda tajribasizlik va h.k.

Kurashchilarga inson harakatida tabiiy ravishda yuz beradigan eng muhim faoliyatlar (bo‘g‘inlar harakati, ko‘rish, sezish a’zolari, sarf qilina-digan oziqa quvvatlari va ularni qayta tiklash va h.k.) va ularni takomillashtirishga qaratilgan nazariy bilimlar berish e’tibordan chetda qoladi.

Olib borilgan kuzatishlar, so‘rov-suhbatlar, amaliy sinov-tajriba ishlarining natijalariga asoslanib quyidagicha fikr bildirish mumkin:

1. Jismoniy madaniyat va sport taraqqiyoti haqida ma’lumnazariy bilimlarga ega emasligi;
2. Sportchilar faoliyatida asosiy vosita bo‘lgan jismoniy sifatlarni (kuch, tezlik, chidamlilik, egiluvchanlik va epchillik) noto‘g‘ri rivojlanadirish;
3. Sportda eng yuqori ko‘satkichlarga erishish yo‘llarini o‘zlashtirgan ;
4. Jismoniy rivojlanish va yuksak mahoratlarga erishishda anatomik, fiziologik, biomexanik, psixologik, gigienik omillarning ijobiliy ta’siri haqida tushunchalarga ega emasliklari;
5. Bu ko‘rsatkichlar texnik va taktik tayyorgarlikka oid tushunchalarni o‘rgatishga e’tiborni kuchaytirish;
6. Kurashchilarga maxsus adabiyotlarni o‘qishni tavsiya etish, nazariy bilimlar bilan qurollantirish uchun tavsiyanomalar, uslubiy qo‘llanmalar ko‘p ishlab chiqishni talab etadi.

Muammolarni hal qilish uchun quyidagilar taklif etiladi:

- umumta’lim o‘rtta maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari hamda oliy ta’lim muassalarida o‘zlarining imkoniyatlari va ehtiyojlari asosida kurashchi mutaxassislarga bo‘lgan talablarni avvaldan belgilashlari, shu asosda oliy ta’lim muassasalariga buyurtmalar berish lozim;
- ishlab chiqarish jamoalarida kurash bo‘yicha to‘garaklar tashkil etish, murabbiylarni jalb etishni yo‘lga qo‘yish zarur. Shu asosda mutasaddi tashkilotlar va o‘quv yurtlari bilan shartnomalar tuzish, jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarga buyurtmalar berishni odatlantirish;



- yashash joylari, ayniqsa shirkat va qishloq xo‘jaliklarida kurash bo‘yicha shtatlar ajratish, murabbiylar va tashkilotchi-uslubchilarni jalb etish, mehnatiga yarasha haq to‘lash lozimdir.
- bolalar salomatligini muhofaza qilish va iqtidorli qizlarni kurash bilan shug‘ullantirish maqsadida mahalliy millat xotin-qizlaridan kadrlar tayyorlashni rejali asosda yo‘lga qo‘yish davr talabidir.

Xulosa qilib aytganda Kurash mashg‘ulotlarini targ‘ib qilishda buyuk kelajak nafasi bilan yashash, mehnat qilish lozim. Bu yo‘lda ommaviy axborot vositalari xodimlari, sport tashkilotlari rahbarlari va yetakchi mutaxassislarining o‘zaro hamkorligini yaxshi yo‘lga qo‘yish lozimdir.

Adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoev. Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori.2017 yil 2 oktyabr.
- 2 Axmedov F. Q. Jismoniy ta’limda milliy ananalarining o‘rni. Toshken 2010 yil “ Fan nashryoti” 110-bet.
3. K. Yusupov Kurash Xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. Toshkent 2005 yil 129- bet.
4. F.Q.Axmedov,A.R.Abdulaxatov O‘zbek kurashi milliy va umuminsoniy qadriyatlar durdonasi. Toshkent 2017 yil 128- bet.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada oliv ta’lim muassasalarida kurash bo‘yicha o‘qituvchilar va murabbiylar faoliyatiga qo‘yiladigan talablar haqida so‘z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В данной статье говорится о требованиях к деятельности преподавателей и тренеров по борьбе в высших учебных заведениях.

SUMMARY

This article talks about the requirements for the activities of teachers and wrestling coaches in higher educational institutions.